

## **VELOSPORTNI VUJUDGA KELISHI VA O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISH BOSQICHLARI**

**Toylibaev Sultanbek Muxidovich**

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali, p.f.b.f.d.(PhD)

**Akmanova Durdonay Allayar qizi**

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali, velosport  
yo'nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada velosiped sportining umumiyligi va O'zbekistonda  
vujujda kelish tarixi bosqichlari, qolaversa hozirgi kundagi velosportni rivojlanish  
xususiyatlari to'g'risida ma'lumolar keltirilgan.

**Аннотация:** В данной статье говорится об этапах становления велоспорта в  
мире и в Узбекистане, а также представлена информация об особенностях  
развития велоспорта на сегодняшний день.

**Annotation:** This article talks about the stages of the formation of cycling in the  
world and in Uzbekistan, and also provides information about the features of the  
development of cycling today

**Kalit so'zlar:** velosport, vuhujdga kelish tarixi, rivojlanish bosqichlari,  
O'zbekistonda velosport, velotrek, shosseeda velosport.

**Ключевые слова:** велоспорт, история возникновения, этапы становления,  
велоспорт в Узбекистане, велотрэк, шоссейный велоспорт.

**Keywords:** cycling, history of origin, stages of formation, cycling in Uzbekistan,  
cycle track, road cycling.

**Velosiped sporti** - velosiped bilan trek, shosse, past-baland joyda poyga qilish, shuningdek figurali yurish, velobol va velopolo musobaqalari. Yevropada 1860-yillarda paydo bo‘lgan. 1896 yildan Olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritilgan; 1893yildan trekda, 1921 yildan shossedda, 1929-yildan yopiq binolarda, 1950-yildan kross bo‘yicha jahon birinchiliklari o‘tkaziladi. Xalqaro velosipedchilar uyushmasiga (UCI; 1900-yil asos solingan) 152 mamlakat a’zo. 1997-yil O‘zbekiston Velosiped sporti federatsiyasi qayta tashkil qilindi. Shu yili Velosiped sporti dan 6 xalqaro sport ustasi tayyorlandi. O‘zbekistonda yetishib chiqqan M. Kolyushee, Sh. Zaxriddinov, A. Jamoliddinov, F. Galiullina, Sergey Lagutin, Murod Holmuhammedov va boshqa jahon birinchiligi uchun o‘tkazilgan poygalarning g‘oliblaridir.

O‘zbekistonda velosiped sportining rivojlanish tarixi. O‘zbekistonda velosiped sportining rivojlanishini 4 davrga ajratish mumkin: Oktabr qo‘zg‘olonidan oldingi davr, I jahon urushidan keyingi davr, Ulug‘ Vatan urushidan keyin va hozirgi zamonaviy davrlardir. Turkistonda velosiped XIX asming 90-yillarida paydo boldi. 1894 yilning iyul oylaridayoq mahalliy velosipedda uchish havaskorlari tashabbusi bilan Turkistonda birinchi Toshkent havaskor-velosipedchilar j’amiyatni tashkil topgan. Uning raisi etib M.I. Brodovskiy tayinlandi, 1895 yil 16 aprel kuni velosipedchilar jamiyatining yig‘inida trek qurilishi toğrisida qaror qabul qilindi va 1896 yil 4 avgust kuni uni foydalanish uchun topshirildi [1]. 1894 yildan 1903 yilgacha Turkistonda, ayniqsa Toshkent shahri velosiped sportining eng rivojlanish davri deb hisoblanadi. Revolyutsiyadan so‘ng Özbekistonda velospot keng tarqaldi. 1924 yil 8 avgust kuni Toshkent, Sirdaryo, Samarcand, Farg‘ona, Turkmaniston jamoalari ishtirokidagi Turkiston Spartakiadasining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi va ushbu musobaqada Norvegiya jamoasi ham ishtirok etdi. Erkaklar velotrekni asosiy turi bo‘lgan GIT bo‘yicha 1000 metr masofaga yarim final bosqichigacha poygalarini o‘tkazishdi. 1946 yilda Toshkentda 11 oliygoҳ sportchilari ishtirokida birinchi bor oliy o‘quv yurtlari spartakiadasi o‘tkazildi [2].

1991-yilda mustaqillikni qo‘lga kiritgandan keyin O‘zbekistonda velosiped sportining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan velosipedchimiz Jamolddin Abdujaparov.

Jamoliddin Abdujaparov “Tour de Frans” musobaqasida ishtirok etib, yashil mayka sovrindori (1991 yildan 94 yilgacha) va 9 marotaba guruh sprint bahslarida g‘oliblikni qolga kiritgan. Shuningdek shu qatorda 1997 yil O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan murabbiy B.T.Muminov qol ostida shug‘illangan jahon championatining “B” guruhida nufiizli birinchi o‘rini egallagan Fatima Galiulina

Jamolin Abdujaparov “Tour de Frans” musobaqasida yashil mayka (eng yaxshi sprint sohibi naminattsiyasi) qo‘lga kiritgan.

2002 yil Pusan (Koreya)da o‘tkazilgan Osiyo o‘yinlari oltin medal sohibi Sergey Krushevskiy (UZB) markaza, kumish medal sohibi chapta Aleksandr Vinokurov (KAZ) va bronza medali sohibi Van Kam Po (GK).

O‘zbekiston Respublikasida velosportni rivojlantirishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida birqator qaror va farmonlar imzolandi.

Shuningdek, hujjatga muvofiq, 2022-2023-yillarga qadar bolalar-o‘smirlar sport maktablari va olimpiya zaxiralari ixtisoslashtirilgan bolalar va o‘smirlar muassasalarida velosport mahorati bo‘yicha Respublika maktab-internati va velosport turlari bo‘yicha bo‘limlar ochish choralar ko‘riladi.

O‘zbekiston velosport federatsiyasi huzurida professional velosipedchilar sport klubi tashkil etiladi. Hujjatlarda klub faoliyatini tashkil etish tartibi va moliyalashtirish manbalari keltirib o‘tilgan. Va «Tashkent city professional cycling team» professional sport klubni tashkil qilindi.

Hujjatda shuningdek, 2022-yilda bir nechta yirik xalqaro musobaqalarni tashkil qilish belgilab berilgan:

-Velosipedning xalqaro avtomobil (Road) va tog‘ yo‘llari (MTB) turlari Toshkent viloyati -**Oqtosh-Chorvoq-Mountain**, Qoraqalpog‘iston va Samarqand viloyatida-**Save-Aral**;

-Toshkentda xalqaro trek velosiped poygalari -**Silk-Road Tashkent**, Namanganda -**Silk-Road Namangan**;

-Jizzax viloyatida motokros bo'yicha xalqaro velosiped poygasi (BMX Racing) - **Zaamin-Cup**;

-Xalqaro erkin kurash musobaqasi (**BMX Freestyle**) Toshkentda - **Tashkent-Grand Prix**.

Musobaqalarni o'tkazish uchun tegishli ishlab chiqarish infratuzilmasi quriladi, shu jumladan, **Bo'stonliq viloyatida** velospot bo'yicha respublika va xalqaro musobaqalarni o'tkazish uchun mo'ljallangan yangi (**Road**)velosiped yo'lini qurish, shuningdek, velospot bo'yicha xalqaro va respublika musobaqalarini o'tkazish uchun **yopiq turdagи velospot inshootini** qurish [3].

O'zbekistonda sportni rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi hamda O'zbekiston velospot federatsiyasining 2022-2023 o'quv yilidan boshlab:

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, barcha olimpiya zaxiralari kollejlarida velospot turlari bo'yicha amaldagi o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlarini bosqichma-bosqich oshirib borish;

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Nukus va Farg'ona filiallarida velospot turlari bo'yicha bakalavriat ta'lim yo'naliшини ochish to'g'risidagi qarorga binaon, 2022 o'quv yili O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Nukus filialida velospot yo'naliши ochilib, jami 10 ta kvota ajratildi. Kunduzgi talimga 6 da va sirtqi talimga 4 da.

«Tashkent city professional cycling team» jamoasi yaqinda bo'lib otgan Konya (Turkiya) shahrida o'tkazilgan "Islom birdamlik o'yinlari"da velotrek va veloshosse musobaqalarida qatnashib O'zbekiston terma jamoasi o'zini namoyon qildi va ko'p medallar qo'lga kiritdilar. Velosipedchilarimiz hisobida 11 ta medal bor: uchta oltin, to'rtta kumush va to'rtta bronza.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Каримов И.И. Велосипед спортидаги айрим муаммолар ҳақида. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS) ISSN: 2181-2454 (Журнал) Б. 341-345
2. Полищук Д.А. Велосипедный спорт. Киев «Олимпийская литература» 1997. 315 б.
3. Chernikova E.N., Karimov I.I., Xolmuratov O.Yu. Velosport nazariyasi va uslubiyati T.: “Barkamol fayz media” – 2017. 322 b.

